

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Shokirboyeva Sarvinoz

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'naliishi 1-kurs talabasi*

Ilhomjon Aldashev

*Farg'ona davlat universiteti axborot
texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o'rni haqida qarashlar bayon etilgan*

Kalit so'zlar: *yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta'lif.*

Yigirma birinchi asrda taraqqiyotni axborot texnologiyalari va jahon axborot tarmog'i-internetsiz tasavvur qilish mushkul. Internet - axborot va hujjatlarning o'zaro almashinishini ta'minlaydigan kompyuter tarmoqlarini birlashtirgan xalqaro tizimdir. Bu o'rinda internetning keng imkoniyatlari va ijobjiy jihatlari, ijtimoiy tarmoqlar yoki messenjerlarning qulayligini sanab o'tishga hojat yo'q.

Har narsaning yaxshi va yomon tarafi bo'lganidek, so'nggi yillarda internetning ham jiddiy xatarlari yuzaga chiqmoqda. Eng achinarlisi, buzg'unchi, yot oqimlar ijtimoiy tarmoqlardan o'zlarining g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanmoqdalar. Bu esa yoshlarni o'z domiga tortayotgani, ayrim saytlarda behayolik, axloqsizlik kabi ayanchli illatlar targ'ib etilayotgani, shuningdek, turli fitnalar, jamiyatni beqarorlashtiruvchi yolg'on ma'lumotlar berilayotgani afsuslanarlidir...

Yoshlarga bugungi kun rivojlangan texnologiyalar asri va axborot makoni juda keng imkoniyatlar yaratib berishi bilan birgalikda zararli axborot shaklidagi katta xavfni shakllantirmoqda. Bunday yoshlar kelajagiga o'zining salbiy ta'sirirni o`tkazuvchi omillardan ularni asrab-avaylash uchun yoshlar o'rtasida axborot madaniyatini rivojlantirish zarur bolib, o'z navbatida bu jamiyat siyosiy savodxonligi darajasiga ham yuqori darajada o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Insoniyat ertangi kuni uchun kurashar ekan, bunda yosh avlodning munosib davomchi sifatida shakllanishi uchun har tomonlama chuqur islohotlar amalga oshirib borishi va bunda yoshlarning mas'ullik hissini ham shakllantirib borishi talab etiladi. Sababi yoshlar oldiga qo'yilayotgan maqsadlar ularda qat'iy rioya qilinishi talab etiladigan me'yirlarni ham yuzaga keltiradi. Yoshlar axborot iste'molchisi sifatida ,avvalo, axborot tasnifini anglashi, ulardan foydalanish imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi, zararli axborot maydoni ta'siridan o'zini himoya qilish prinsiplarini anglab yetishi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanganda talab etiladigan me'yirlarni to'liq anglab yetishi bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar bugungi kun talabidir.

Global axborot makoniga teran ko'z bilan qarasak, unda mavjud barcha axborotlarni ham foydali va beziyon deb bo'lmaydi. Xususan, ayni paytda internet tarmog'ida o'z joniga qasd qilishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi, shuningdek, zo'ravonlik va yovuzlik ruhidagi kompyuter o'yinlari borki, ular milliy qadriyatlarimizga zid va yosh avlod tarbiyasiga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoli juda yuqori.

Mazkur masalada davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar esa tahsinga loyiqidir. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", - deb ta'kidlaganida yoshlar orasida har qanday ijtimoiy xavf keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashish nazarda tutilgan desak, mubolag'a qilmaymiz.

Bugungi kunda ta'lim jarayonini to'g'ri va samarali tashkil qilishda ham axborot texnologiyalarining, jumladan kompyuterning o'rni beqiyos. Ushbu texnikaning eng katta yutuqlaridan biri sifatida aytib o'tishimiz lozimki, darsda mamlakatimizda va dunyoda ro'y berayotgan yangiliklar, (xohlagan mavzuga doir) jumladan, ta'lim tizimi va sport yangiliklarini to'g'ridan to'g'ri foydalanilsa, bo'ladi, shu mavzudagi videofilmlar ham darsni yanada qiziqarli o'tishiga yordam beradi. Shu orqali har qanday ma'lumot o'quvchi xotirasida tez va mukammal holda qolishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi.

Bugungi zamon hamma narsaga teranlik bilan real qarashni, yuksak maqsadlar yo'lida fidoyi va qat'iyatli bo'lishni taqozo etmoqda. Shu bois yosh avlod ongida u yoki bu mavzu xususida noto'g'ri tasavvur paydo bo'lmasisligi kerak. Buning uchun esa muallim va murabbiylar, ma'naviyat sohasi xodimlari yoshlarning qalbi va ongini yot, zararli ta'sirlardan asrash uchun kurashishi, axborot oqimi jadallahushi sharoitida milliy-axloqiy qadriyatlarni yoshlar ma'naviyatiga singdirishning ta'sirchan omillarini izlab topishi haqida ko'proq o'ylashimiz zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, axborot asri davrida yoshlarga yopirilib kelayotgan axborotlardan foydalana olishlari, xususan, nosog'lom axborotlardan himoyalana olishlari, kommunikatsiya vositalaridan to'g'ri foydalana bilishlari uchun bilim va tajriba kerak. Aynan mana shu borada ular kattalar, ayniqsa, ota-onalar va ustozlarning ma'naviy-ruhiy ko'magiga muhtoj. Shunday ekan, yoshlarga sog'lom axborot muhitini yaratib, ular ma'naviy olamining daxlsizligini asrash asosiy vazifalarimizdan biridir. Zero, yoshlar ma'naviyatiga daxldor yumushlarda beparvolikka yo'l qo'yib bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz.- T., Ozbekiston: NMIU, 2016.
2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. Oquvchi – yoshlarda axborot istemoli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., “TAFAKKUR QANOTI”, 2016.
3. TALIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDA METODLAR VA ULARNING IMKONIYATLARI I Aldashev, S Aldasheva - Journal of technical research and development, 2023
4. TEXNOLOGIYA DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O'RNI M To'rayev, ST Aldasheva, IT Aldashev - Results of National Scientific Research International ..., 2023
5. O'QUV JARAYONIGA MEDIA TA'LIMNING INTEGRATSIYASI I Aldashev - Scientific journal of the Fergana State University, 2023
6. Yuldasheva, G., & Yo'ldosheva, M.(2023). Yangi innovatsion texnologiyalarning pedagogik jarayondagi roli. Talqin va tadqiqotlar, 1(6).
7. Алдашев, И. (2020). Современные информационные технологии в образовании-это новые возможности. Экономика и социум, (6 (73)), 341-344.
8. Shermatova, H. M. (2023, January). Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt tizimlarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda qo 'llanilishi. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE"
9. THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 2, No. 1, pp. 107-113).
- Mirzayevna, S. H., Muhammadaliyevna, A. S., & Qizi, O. M. O. (2022). Boshlang'ich Sinflarda Ta'lif Sifatini Oshirishda Aktdan Foydalanish. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(13), 69-74.
10. Mirzaakbarov, D. D. (2021). DIRECTIONS FOR THE INTRODUCTION OF NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN EDUCATION. Экономика и социум, (4-1), 211-214.